

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Xalikov	
Ta'lrim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati	211
A.A.Mirzayev	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari	217
S.A.Azamova	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari.....	223
M.I.Yusupova	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
M.M.Aralov	
OTM talabalarining grafik tayyorgarliklagini rivojlantirish vositasi sifatida	235
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lum va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili	124
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	241
J.X.Boysunov	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
B.I.Beshimov	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili.....	250
Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova	
Umumiy o'rta ta'lum maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monotoringi	255
M.X.Raxmonova, M.O.Karimova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbli va mohiyati....	260
N.S.G'aurova	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
G.M.Kamalova	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе	266
R.M.Ubaydullayev	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash	270
A.K.Nafasov	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida	274
F.A.Ikramov	
Mustaqil ta'lum faoliyati asosida talabalarning huquqiy ta'lmini tashkil etishning pedagogik omillari	277
D.T.Tursunova	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari	281
D.D.Boymirzaeva	
O'zbekistonda oliy ta'lum muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili	286
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda OTMlar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari	292
S.S.Qozaqova	
Hikoya tuzishga o'rgatish mактабгача yoshdagи bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	298
F.A.Askarov	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lum samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
D.Z.Isaboyeva	
Boshlang'ich ta'lum o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi)	308
M.I.Ne'matov	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish	311

YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING FALSAFIY MOHIYATI

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ВОСПИТАНИЯ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

PHILOSOPHICAL ESSENCE OF RAISING SPIRITUAL CULTURE IN YOUNG PEOPLE

Boysunov Jonbek Xidirovich¹

¹Qarshi davlat universiteti Roman-German filologiyasi fakulteti, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinnbosari

Annotatsiya

Mazkur maqolada ma'naviy madaniyatining ijtimoiy falsafiy aspektlarini o'rganish, tadqiq qilish asosida yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, ma'naviy madaniyat durdonalaridan oziqlanish va bahramand bo'lish asnosida o'z-o'zini anglash, o'zini isloh qilish, uning qalbida ezgulik, odamiylik, millatparvarlik, vatanparvarlik, milliy ma'naviy merosimizni qadrlash hamda shaxs bo'lib shakllanishi haqida mulohaza yuritiladi.

Аннотация

В данной статье на основе изучения и исследования социально-философских аспектов духовной культуры, повышения духовной культуры молодежи, самосознания, самореформирования, в ее основе Добра, человечности, национализма, патриотизма, признания нашего обсуждаются национальное духовное наследие, формирование личности.

Abstract

In this article, on the basis of studying and researching the social and philosophical aspects of spiritual culture, raising the spiritual culture of young people, self-awareness, self-reformation, in its heart Goodness, humanity, nationalism, patriotism, appreciation of our national spiritual heritage, and the formation of a person are discussed.

Kalit so'zlar: Yoshlar, ma'naviyat, madaniyat, aspekt, millatparvarlik, vatanparvarlik, kognitiv madaniyat, siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, estetik madaniyat, axloqiy madaniyat.

Ключевые слова: Молодежь, духовность, культура, аспект, национализм, патриотизм, познавательная культура, политическая культура, правовая культура, эстетическая культура, нравственная культура.

Key words: Youth, spirituality, culture, aspect, nationalism, patriotism, cognitive culture, political culture, legal culture, aesthetic culture, moral culture.

KIRISH

Ilmiy izlanish davomida yoshlar ma'naviy madaniyatining shakllanishida milliy va umuminsoniy ma'naviy madaniyat durdonalaridan oziqlanish va bahramand bo'lish asnosida o'z-o'zini anglash, o'zini isloh qilish, uning qalbida ezgulik, odamiylik, millatparvarlik, vatanparvarlik, milliy ma'naviy merosimizni qadrlash hamda shaxs bo'lib shakllanish jarayonida iste'dodi va qobiliyatini namoyon qilishi ko'rsatib berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy tatqiqotni o'rganishda asosan mamlakatda hukumat qarorlari, mamlakatning asosiy qonun hujjati bo'lgan konstitutsiya, olimlarning yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirish borasidagi fikrlari asos bo'lib hizmat qildi. Tatqiqotni o'rganishda ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash, chiqarilayotgan farmon va qarorlarni tahlil etishdan kelib chiqqan xulosalar, malumotlarga holislik bilan yondashuv orqali tadqiq etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi asrga kelib yoshlar falsafasi bilan shug'ullanish, ularning intellektual salohiyatini to'laqonli rivojlantirish, tadrijiylik negizida milliy strategiya va mexanizmlarni yaratish zamon talabiga aylandi. Bunda yoshlar davr ruhiyati, ma'naviy qiyofasi, axloqiy ideallari bilan mavjud jamiyatdagi paradigmal holatlarni vujudga keltirib yuboradi. Bu jarayonda ular turli qaramaqarshiliklarga duch kelishi, rivojlangan davlatlar tajribasidan andoza olgan holda voqelikka falsafiy-madaniy nuqtai nazardan yondashishlari namoyon bo'ladi.

"Jamiyatda insонning ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar falsafaning obyektiv qonunlarni ochishi va umumiyl kategoriyalarni ishlab chiqishi uchun empirik ma'lumotlar bo'la oladi"^[1]. Har bir davrda faylasuflar yoshlarga oid tadqiqot obyektlarini mukammal o'zlashtirishlari va voqelikdagi jarayonlarni bilish natijasitda ma'naviy madaniyatning yangi qirralari haqida tushuncha va tasavvurlarini boyitib boradilar. Shu boisdan ulardagi kelajakka qaratilgan ma'naviy

ILMIY AXBOROT

madaniyat masalalarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berildi. Birinchidan, yoshlarning yangilikka intilishlari ma'naviy madaniyat negizida rivojlanib boradi. Ikkinchidan, yoshlar ma'naviy madaniyatining shakllanishida milliy va umuminsoniy ma'naviy madaniyat durdonalaridan oziqlanish va bahramand bo'lish asnosida o'z-o'zini anglash, o'zini isloh qilish, uning qalbida ezgulik, odamiylik, millatparvarlik, vatanparvarlik, milliy ma'naviy merosimizni qadrlash hamda shaxs bo'lib shakllanish jarayonida iste'dodi va qobiliyatini namoyon qilishi. Shundagina yoshlar jamiyatda shaxs sifatida shakllanib, ongli va faol turmush tarziga ega bo'ladilar. Uchinchidan, ma'naviy madaniyatining ijtimoiy falsafiy aspektlarini o'rganish, tadqiq qilish asosida yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning ilmiy - nazariy asoslarini ishlab chiqish muhimdir

Jamiyatda aksariyat zamonaviy tushunchalar tizimida yoshlar ma'naviy madaniyati faqat ijtimoiy hayotning ijobiy tomonlariga ta'sir qiladi deyish ham xatolikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun mazkur faoliyatda ogohlilik va hushyorlik har birimizning vazifamizga aylanishi kerak. Chunki jamiyatdagi o'zgarishlar natijasida yoshlarning tafakkurlashi ham zamonga mos ravishda yangilanib, o'zlar anglamagan holda ba'zi bir g'oyalalar ta'siriga tushib qolishi ro'y bermoqda. Masalan, teleekranlarda ba'zi kinoaktisalar, hofizlar va estrada yulduzlarining o'zini nokamtar qiyofada tutishi, noaxloqiy chiqishlari jamiyatga, ayniqsa, endi murg'ak qalb uyg'onayotgan yoshlar ongiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu san'at unsurlarining hayotiyligi va yoshlar ijtimoiy ongini kamol topib borishidagi ta'siri ko'pincha salbiy g'oyalalar sari yetaklaydi. Bunday toifadagi madaniyatdan qochish, yoshlarni asrash zamon talabi asosida shakllanib borishi uchun bizni ogohlantiradi. Bunda zamonaviylikni talab qiladigan sotsiogenez asosida individual va tabiiy muhitga mos muvozanat tamoyillarini ishlab chiqish, jamiyatda to'g'ri muvozanatni qaror toptirish muhimdir (masalan, davlatning milliy xarakteriga mos bo'lgan yoshlarning barqaror rivojlantirish zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish). Bularning barchasi universal holatda globallashuvning paydo bo'lishi va kuchayishiga yordam beradi.

Biz jamiyatda yoshlarning muammolariga ko'proq e'tibor qaratishimiz, ularning tarixan shakllangan an'analariga asosiy falsafiy tadqiqot obyekti sifatida munosabatda bo'lismiz darkor. Shundagina "xalq an'analar, marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan odob-axloq, mehr-oqibat, izzam-ikrom kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi"[2]. Shuning uchun maqbul integral ma'naviyat tamoyili bilan yoshlar ma'naviy madaniyatini barqaror rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, konsepsiyaning yaratilishi yoshlar ma'naviy madaniyatini haqiqatan ham mazmunan boyitish mumkin bo'lgan ko'p o'ichovli komponentlarni o'zida ifodalaydi va mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Bular yoshlar ma'naviy madaniyatining tuzilishini ko'rsatib beradi. Birinchidan, yoshlar ma'naviy madaniyatidagi ushbu tarkibiy qismlar alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi: 1) kognitiv madaniyat (lotincha "cognize" - bilmoq, anglamoq, tushunmoq) - bu madaniyatning shakllanishi bilan bog'liq jarayonlarni insonlar tomonidan o'zlashtirilishi orqali voqelikdagi madaniy bosqichlarni anglab yetish va tushunish hisobalnadi; 2) siyosiy madaniyat – bu fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy munosabatlarini tartibga solib turadigan, tashqi va ichki siyosatni muvofiqlashtirib turadigan jarayonlar ifodasidir; 3) axloqiy madaniyat – bu jamiyatdagi odamlarning urf-odatlari, qarashlarini o'zida ifodalaydigan yurish-turish, xulq-avtor, fazilatlar, yaxshilik va yomonlikni ajratib turadigan falsafiy tushunchadir; 4) huquqiy madaniyat – bu odamlarning huquqiy ongi va haq-huquqlarini anglash orqali davlat va jamiyatning qonunlariga itoat etish, ularning so'zsiz bajarilishini amalga oshirish tizimi sanaladi; 5) estetik madaniyat – bu jamiyatdagi estetik munosabatlarni qadriyatlar asosida yangilab borish, insonga zavqli kayfiyat baxsh etadigan go'zallik qonunlarining amal qilish mexanizmidir.

Bu xususiyatlarning barchasi bevosita yoshlarning jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlashga, o'zlarining faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirishga olib keladi. Ikkinchidan esa, ma'naviy jamiyat jamiyatda qanchalik ko'p taraqqiy etsa, uni o'zlashtirish, yon-atrofdagilarga tarqatish, realizatsiya masalasi o'zining ko'zlangan maqsadiga yetadi. Odamlarning ongu-tafakkurida ma'naviyatga nisbatan daxldorlik hissi kuchayib boradi. Aniq maqsadlarni belgilash asosida taraqqiyotga intilish, vijdonlilik, poklik, adolat g'oyalariaga sadoqat tuyg'ularini qaror toptiradi.

Yoshlarda moddiy dunyoning o'tkinchiligi, ma'naviy madaniyatning asrlar davomida e'zozlanishi borasida tushunchalarni shakllantiradi. Uchinchidan, yoshlarning moddiy madaniyatni o'zlashtirishi natijasida bevosita ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni o'zining xilma-xil ko'rinishlari va qiyofalarini ham namoyon etib boradi. Unda yoshlar o'zining iqtidori, intilishi va tashabbuslari bilan ma'naviy jarayonlarni harakatga keltirib boradi "Moddiy madaniyatni ma'naviy madaniyatdan ajratib

bo'lmaydi, ayni paytda ma'naviy madaniyat ham moddiy madaniyatsiz yuzaga kelmaydi, ular o'zaro bog'liq holda rivojlanib boradi”[3]. Natijada yoshlarning intellektual salohiyati doirasida ma'naviy munosabatlar betakror loyihalar bilan boyib boradi.

Har bir voyaga yetib kelayotgan yoshlarning oilada, mehnatda, o'qishda, odamlar orasida va jamiyat ijtimoiy-falsafiy hayotidagi harakatlari ma'naviy madaniyat mezonlari bilan o'lchanadi. Agarda yoshlar tarbiyasida ana shu umumiy zanjirning birortasi tushib qolsa, bunda voyaga yetayotgan yoshga ham, jamiyatga hamda oilaga ham ma'lum darajada zarar yetadi. Yoshlarning dunyoqarashini, didini, ilm-hunarga munosabatini axloqi kabi tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy madaniyat har bir yoshning birinchi qadamidan, “qush uyasida ko'riganini qiladi” deganidek, oilada, ota-onas, aka-uka, opa-singil namunasidan boshlanadi. Sekin-asta bog'cha va maktabda beriladigan saboqlar natijasida jamiyatdagi aloqalar orqali umri davomida sayqallanib boradi.

Ma'naviy madaniyat aslida ma'lum miqdor, sifat va ma'naviy munosabatlarning to'plami, inson ongi va ma'naviy faoliyatining mahsuli sanaladi. Unda ma'naviy ong va faoliyat bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlar qonuniy tarzda mavjud jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodni ham ruhan, ham ma'nani, ham jismonan kamol topishiga xizmat qilishi mexanik yo'l bilan amalga oshadi. Bu jarayonda yoshlar voqelikka o'zlarining zavqiy munosabatlarini in'ikos ettirib, borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini anglab boradi.

Yoshlar ma'naviy madaniyati deyarli jamiyatning ideallarini qamrab oladigan ma'naviy munosabat, ong, faoliyatning mazmun-mohiyatini o'zida ifodalaydi. “Binobarin, odamzodning ongiga qanday fikr, g'oya, nuqtai nazar, olam va unda odamning o'rni qarashlar to'g'risidagi bilim singigan bo'lsa, shunga muvofiq, uning fe'l-atvori, xatti-harakati, butun faoliyati tus oladi”[4]. Shundagina har bir shaxsning o'zligini anglashi tezroq namoyon bo'ladi. Bunda ma'naviy yangilanishlar, voqelikka zavqiylik, insonning ichki dunyosini muayyan qirralari falsafiy mushohadani shakkantiradi. Shuning uchun ham ma'naviy madaniyat ta'rifi aniq, haqiqatga mos tarzda bo'lishi maqsadga muvofiqli. Aslida birinchi navbatda butun mavjud ma'naviy madaniyat jamiyatning, ya'ni insoniyatning boyligi va qo'lga kiritilgan yutuqlari mahsulidir. “Ma'naviy boyliklar avloddan avlodga – bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o'tadi va jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi”[5]. Shu tarzda xalqning turmushiga kirib kelgan ma'naviy madaniyat elementlari avlodlar uchun namuna sifatida xizmat qiladi.

Ba'zida ajdodlar tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy faoliyat jarayonida assimilyatsiyaga uchrab, yoshlarning ma'naviy madaniyati mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi. Avvalo uning qiymati oshishiga, yo'naltiriladigan sohalar qamroving kengayishiga, jamiyatda faol ijodiy muhitning yaratilishiga olib keladi. Natijada xalq, millat yoxud yoshlar ma'naviy madaniyatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy dunyoqarash shakkantiradi, falsafiy atamalar tizimiga makro yaqinlashish vujudga keladi. Makro darajadagi o'zgarishlarda xalqning ham madaniyatiga o'zaro ta'sirlar kirib kelib, yangilanishlar sari chorlaydi. Buning natijasida deyarli barcha ma'naviy madaniyat shakkantiradi. “Aslida har bir alohida shaxsning ma'naviy madaniyati qaysidir ko'rinishda ma'naviy jihatdan rivojlangan bo'ladi, ba'zida individual, muayyan shaxsning noyob va bir butun ma'naviy dunyosidagi qobiliyatlar ifodalanadi”[6]. Bu jarayon har doim sodir bo'lmasa, unda shaxs emas, balki uning borlig'ini jamiyatda namoyon qilishga qodir ma'naviy kuchlarning sharoit va imkoniyatlariga tayanish, shu asosda voqelikni ro'yobga chiqarish samarali tizim hisoblanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotda yoshlar uchun ba'zi bir tartiblar o'zgarishi, ommaviylashuv jarayonlari milliylikdan kosmopolitizm sari intilishda aks eta boshladi. Yoshlarning ongida dunyoviylikka ishtilish, o'zining tug'ilib voyaga yetgan tuprog'iga o'zgacha munosabatda bo'lish holatlari ham paydo bo'la boshladi. Bu esa, ularning ongida milliylikdan yiroqlashish, barchaning shu olamda yashashini olqishlashdan iborat bo'lishiga olib kelmoqda. “Jamiyatning ijtimoiy hayotini belgilaydigan, inson madaniyatini yuksak ma'naviyat bilan boyitish, insonparvarlikni kamol toptiradigan zavqli hayotni barpo etish zaruriyati vujudga keladi”[7]. Yoshlarning bunday estetik imkoniyatdan samarali foydalanishlari, o'z oldiga qo'ygan maqsadning aniq obyektiga ega bo'lishi, keljakda foydali yo'lni tanlashi maqsadga muvofiqli.

Har bir davrning o'ziga xos yutuqlari va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan ma'naviy madaniyatning unsurlari xalqning hayotida sayqallanib va mustahkamlanib boradi. Shu orqali bu keng tarqalgan ma'naviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatini tushunchalarda va umuminsoniy qadriyatlarda aks ettiradi. Shu bilan birga yoshlar ma'naviy faoliyatining barcha ko'rinishlari

muayyan tizim yaratuvchi omili sifatida ijtimoiy makonda zamonga mos holatda harakatga kelib, ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi, tartibga soluvchi determinant tizimga kiradi va shu bilan birga yangi xususiyatlarini ochib beradi. Natijada yoshlarning falsafiy tafakkur tarzi va voqelikning namoyon bo'lish sababiyati qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi.

XULOSA

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga berilayotgan imtiyozlar natijasida yurtimizning har bir mahalla va guzarlarida ma'naviy madaniyat unsurlarini tadqiq etish va boyitish borasidagi islohotlar keng avj oldi. Joylarda yoshlar yaratayotgan san'at va adabiyot asarlari, tarixiy-me'moriy boyliklar o'ziga xos yutuq sifatida tarixga aylammoqda. Bu esa, har bir yosh avlodning erkin va mustaqil madaniy jarayonlarga estetik munosabatini kuchaytirib, milliy davlatchilik negizlarining ajdodlar merosi bilan uyg'un holda rivojlanishida ma'naviy kuch vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Яхшиликов Ж.Я., Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. – Тошкент: Чўлпон, 2018. –Б. 35.
2. Қорабоев У.Ҳ. Одатнома. –Тошкент: O'zbekiston, 2018. –Б. 170.
3. Отамуродов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. -Тошкент: O'zbekiston,2015. –Б. 22-23.
4. Хўжанова Т.Ж. Мафкуравий профлактика – ёш авлодни ғоявий ҳимоялаш омили (ижтимоий-фалсафий таҳлил). –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2019. –Б. 105.
5. Ж.Туленов, З.Фофуров. Фалсафа. –Тошкент: Ўқитувчи, 1997. –Б. 270.
6. Гавриленко Н.В. Духовная культура личности в системе гуманитарного образования. –Москва: 2000. –С.23.
7. Самадов А.Р., Эргашева М.Ҳ. Шахс эстетик идеали: шаклланиш ва ривожланиши муаммолари. – Тошкент: Zilol buloq. 2021. –Б. 111.